



## The Portrayal of Mi'raj in Alisher Navoi's "Khamisa"

Boboravshan RASULOV<sup>1</sup>

Alisher Navoi's Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

#### Keywords:

Mi'raj,  
Isra,  
Khamisa,  
epic poem,  
verse,  
hadith,  
basmala,  
hamd,  
munajat,  
perfect human,  
na't,  
angel.

### ABSTRACT

This article examines the views of Hazrat Alisher Navoi, the sultan of the realm of ghazals, on the upbringing of a perfect individual, the naats in the introduction to the "Khamisa" epics, and the interpretations of the Mi'raj and Isra events in Alisher Navoi's "Khamisa." Specifically, the description of the Night of Mi'raj is presented through verses of the Holy Quran, hadiths, and historical events, with particular emphasis placed on its significance in classical literature.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp260-264>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Alisher Navoiy "Xamsa" sida Me'roj tasviri

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

Me'roj,  
isro,  
xamsa,  
doston,  
oyat,  
hadis,  
basmala,  
hamd,  
munajat,  
komil inson,  
na't,  
farishta.

Ushbu maqolada g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy hazratlarining komil inson tarbiyasidagi qarashlari, "Xamsa" dostonlari muqaddimasidagi na'tlar, Me'roj va Isro voqealarining Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi talqinlariga e'tibor qaratiladi. Jumladan, Me'roj kechasi ta'rifi Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar hamda tarixiy voqealar vositasida bayon etiladi va mumtoz adabiyotdagi o'rniga alohida urg'u qaratilgan.

<sup>1</sup> PhD student, Alisher Navoi's Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

## Образ Миладжа в «Хамсе» Алишера Навои

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

Мирадж,  
Исра,  
Хамса,  
поэма,  
аят,  
хадис,  
басмала,  
хамд,  
муножат,  
совершенный человек,  
на'т,  
ангел.

В данной статье рассматриваются взгляды султана газелей – Алишера Навои – на воспитание совершенного человека, восхваления (на'ты) во вступлениях к поэмам «Хамсы», а также интерпретации событий Мираджа и Исры в произведении «Хамса». В частности, описание ночи Мирадж приводится на основе аятов Священного Корана, хадисов и исторических событий, с особым акцентом на её значение в классической литературе.

Istiqlol davrida Alisher Navoiy hazratlarining ijodiga yondashuvlar ahamiyati yanada ortdi. Alisher Navoiy hazratlarining dunyoqarashi, fikri, nuqtai nazari, olam va odam, dunyo va oxirat haqidagi asarlaridagi baytlari bugungi kunda ham qadrini yo'qotmagan. Milliy ma'naviyatimizni ushbu ulug' mutafakkir asarlarisiz tasavvur qilishimiz mumkin emas.

Navoiy o'z davrining farzandi bo'lib, uning tafakkuri ham o'sha davrning mahsuli. XV asr musulmon xalqlari esa islom ta'limoti sifatida unga suyanar edi. Shoirning dunyoqarashini ham islom va tasavvuf falsafasidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Binobarin: "Tasavvuf Sharq xalqlar falsafasi va madaniyatining buyuk yutuqlaridan biri bo'lib, u g'oyat chuqur ilmiy-amaliy, diniy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ma'naviy ta'limot ekanligi bilan bashariyat tarixida yuksak mavqe egallaydi".

Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida asar ta'lif qilgan ijodkor hamd va na't bitish odobi tasnifga amal qilish hisoblangan. Jumladan, ijodkor asarning asosiy qismiga murojaat qilishdan oldin muqaddima qismida hamd va na't boblariga alohida e'tibor qaratgan. Isro va Me'roj kechasi na'tlarning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Xamsachilik an'anasi davom ettirgan ijodkorlar dostonlari muqaddimasida hamd va na't baytlarining kelishi an'anaviy holatdir. Jumladan, Alisher Navoiy ham Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar an'anasini davom ettirib, "Xamsa" asarida Hamd va na't qismlarga alohida e'tibor qaratgan.

Me'roj mavzusi bilan bog'liq syujet musulmon sharqida yaratilgan manbalarda dastlab na'tning ichiga singdirib berilgan bo'lib, keyinchalik, mustaqil asar sifatida shakllangan. Sharq adabiyotida payg'ambar me'rojiga doir adabiy asarlarning paydo bo'lishi va turkiy tilli xalqlar orasida tarqalishini ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shu bilan birga tasavvuf adabiyoti namoyandalari o'z asarlarida Isro va Me'roj voqealarini bayon etuvchi maxsus boblar ajratishini ularning mazkur hodisaga nisbatan mustahkam ishonchlari bilan ham izohlash mumkin.

"Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da "me'roj" so'zining birinchi ma'nosi "shoti", "narvon", ikkinchi ma'nosi "yuqoriga (ko'kka) ko'tarilish", uchinchi ma'nosi Muhammad payg'ambarning Makkadan Quddusga borishi va Quddusdan ko'kka chiqishi deb izoh berilgan.

Alisher Navoiy "Xamsa" asarini yozish davomida barcha dostonlarining muqaddima qismida me'roj voqeasiga alohida to'xtalib o'tgan. Jumladan, "Hayrat ul-abror"da 53 bayt, "Farhod va Shirin"da 68 bayt, "Layli va Majnun"da 100 bayt, "Sab'ai sayyor"da 92 bayt va "Saddi Iskandariy" dostonida 122 baytdan iborat.

Isro va me'roj – islom tarixida payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayri (Isro) hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilishi (Me'roj) voqealarini anglatadi. Bu haqda Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarda batafsil ma'lumotlar olishimiz mumkin. Hadis va rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad sallallohu alayhi vasallam Jabroil alayhissalom boshchiligida tunda uzoq masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytadi.

Besh vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko'pgina asarlar mavjud. Isro va me'roj kechasi islom olamida diniy bayram sifatida har yili hijriy rajab oyining 27-kechasida nishonlanadi.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga borishi Isro va Quddusdan Alloh taoloning huzuriga borishi Me'roj deb ataladi. Me'roj Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamga berilgan ulug' mo'jizalardan biridir. Boshqa biror payg'ambarga bunday ulug' maqom berilmagan. Me'roj voqeasiga inson aqli bilan anglamaydigan hodisadir. Unda ro'y bergan hodisalar zamon, makon va masofa kabi tushunchalarni anglatishiga har qanday qalam ojiz.

Qur'oni karimning 17-surasi Isro surasida Me'roj kechasi quyidagicha ta'riflangan: **“(Alloh) bir kecha, O'z bandasi (Muhammad)ni unga oyat – mo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun (Makkadagi) Masjid al-Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakotli qilib qo'ygan Masjid al-Aqsoga sayr qildirgan (barcha ayb-u nuqsondan) pok zotdir. Darhaqiqat, U eshitguvchi, ko'ruvchi zotdir”** *“Isro” surasi, 1- oyat).*

Me'roj kechasi to'g'risida Sharq falsafiy tafakkuri tarixida ham turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, Ibn Sino bu sayrni Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning ruhoniylariga oid deb hisoblaydi. Uning fikricha, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning Buroq bilan Baytul Haramdan Aqso masjidigacha bo'lgan safari jismoniy bo'lib, osmonga uruj etishida ruh badanni muayyan vaqtda tark etib, yana o'z vatani – badan mulkiga qaytgan.

Sahih hadislar va boshqa dalillar shuni ko'rsatadiki, Isro ham Me'roj ham aynan jismoniy ro'y berganligi, bu paytda ruh jasadni tark etmagan. Alisher Navoiy hazratlari ham “Xamsa” dostonlarida ushbu fikrni bildirganlar. “Hayrat-ul abror” dostonining beshinchi na'ti Isro va Me'roj kechasiga bag'ishlangan bo'lib, u “Me'roj kechasi ta'rifidakim, karimai: “Subhonallazi asro” anga musaddaqi durur va “bi-abdihi laylan minal masjidil 38 haromi ilal masjidil aqso aning subutig'a ikki guvohi sodiq deb nomlanadi. Mazkur na't quyidagi baytlar bilan boshlangan:

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,  
Mehr nihon o'ylaki aynul-hayot.

Garchiki ul chashma nazardin qochib,  
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib.

Tun qilibon gardini anbar sirisht,  
Butratibon yerga nasimi bihisht.

Yer kuravi shakl ila mijmar bo'lub,  
Kecha savodi anga anbar bo'lub.

O't kibi yer mijmari ostida mehr,  
Yopib etak mijmara uzra sipehr.

Yog'ibon oromu sukun yog'ini,  
Past qilib hodisa tufrog'ini.

Bu kecha ul sarvi gulistoni uns,  
Ravshan etib sham'i shabistoni uns.

Vasl xayolidin etib ko'ngli xush,  
Bahrdek ul jo'sh ila aylab xurush,

Kim etib ul soyiri ulviy maqom,  
Ilgida bir toyiri ulviy xirom.

Po'yada ko'k sayricha orom anga,  
Yerdin o'lub ko'kkacha bir gom anga.

Imom Buxoriy “Al-Jomi’ as-sahih”ining “Me’roj haqida”gi bobida Molik ibn Sa’saa rivoyat qilgan hadisda keltirilishicha, Muhammad sallallohu alayhi vasallam osmonning har bir qavatida bir yo bir necha payg’ambar bilan ko’rishadilar. Falakning birinchi qavatida Odam Safiyulloh, ikkinchi qavatida Yahyo va Iso Masih, uchinchi qavatida Yusuf payg’ambar, to’rtinchi qavatida Idris payg’ambar, beshinchi qavatida Horun payg’ambar, oltinchi qavatida Muso payg’ambar, yettinchi qavatida Ibrohim Xalilulloh bilan muloqot qiladilar.

Hazrat Navoiy bu mavzuni bayon qilishda oyat va sahih hadislardan tashqari ko’plab tafsir va aqidaviy kitoblarga ham murojaat qilganini ko’ramiz.

Shuningdek, Isro va Me’roj voqeasi qachon sodir bo’lgani haqida turli xil fikrlar va tadqiqotlar mavjud. Biz uni bir qancha ma’lumotlar bilan ko’rib chiqamiz:

Shayx Akbarobodiy o’zining “Nodirul me’roji turkiy” asarida Isro va Me’roj voqeasi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Va ani (Me’rojni) voqe’ bo’lg’on vaqtida ham ixtilof etgandurlar. Va ulamolarni ko’blari Me’roj Rabiul avval oyida, payg’ambarlikning o’n ikkinchi yilida voqe’ bo’lg’ondur deyurlar. Va ba’zilar ayturlar, Me’roj hijratdin bir yil-u besh oy burun erdi. Bu rivoyatga qaraganda, shul oyda voqe’ bo’lsa kerak. Va bir qavlda Rajab oyining yigirma yettinchisida voqe’ bo’lg’ondur va ba’zilar payg’ambarlikning beshinchi yilida voqe’ bo’lg’ondur deyurlar”.

Jobir va Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumlar: “Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Rabiul avval oyining dushanba kuni ham tug’ilganlar, ham vahiy u zotga rost tush orqali kela boshlagan, ham Me’rojga chiqqanlar, ham Madinaga hijrat qilganlar, ham vafot etganlar”, deyishgan.

Ibn Asiyir Jazariy: “Isro voqeasining dushanba kuni bo’lgani mening nazarimda sahihdir”, – degan. Ibn Munir ham ushbu gapni ixtiyor qilgan.

Shayx Ali Noyif Shahhud: “Isro va Me’roj hodisasi ko’pchilik va muhaqqiq ulamolarning so’zlariga ko’ra, hijratdan bir yil oldin Rabiul avval oyida bo’lgan. Tadqiqot va mushohada qilinganidan keyin, Isro va Me’roj hodisasi Rabiul avval oyida bo’lganiga ishonsa bo’ladi”, deydi.

Mulla Aliy qori ibn Muhammad Sulton Hanafiyning: “Isro hijratdan bir yil oldin Rabiul avval oyida bo’lgan”, degan gaplariga, Ibn Asiy: “Mana shu sahihdir”, – degan”.

Alloma Badriddin Ayniy Hanafiy: “Isro hodisasi hijratdan bir yil oldin Rabiul avval oyida bo’lgan. Bu ko’pchilik ulamolarning so’zidir. Hatto Ibn Hazm bu borada mubolag’a qilib, ijmo’ni naql qilgan”, deydi.

Demak, Isro va Me’roj voqeasi hijratdan bir yil oldin, ya’ni payg’ambarlikning 13-yili Rabiul avval oyida, dushanba kuni bo’lgani haqiqatga yaqindir. Bu vaqt milodiy 621-yilning sentyabr yoki oktyabr oyiga to’g’ri keladi. O’shanda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qamariy 52 yoshga to’lgan edilar. Alloh taolo O’zining buyuk hikmati ila bu hodisaning aniq vaqtini unuttirdi.

Alisher Navoiy bobomiz ham bu voqeani tasvirlab, Isro voqeasi Makkai Mukarramadan Baytul Maqdisga sayr qilish, Me’roj esa Baytul Maqdisdan osmonga ko’tarilish ekani va bu voqealar Rabiul avval oyida sodir bo’lganiga e’tibor qaratgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hazrat Alisher Navoiy asarlari bilan tanishish davomida shoirning falsafiy va adabiy-estetik asoslari Qur’oni karim va hadisi sharifga tayanadi. Eng muhimi hazrat Alisher Navoiy islom ma’rifatining asoslarini adabiy-estetik mezon qilib, asarlarida yuksak badiiy talqin etgan. Shu bilan bir qatorda muqaddas dinimiz arkonlariga bir umr namunali amal qilib yashagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR Ro’YXATI:**

1. Alouddin Mansur. “Qur’oni Karim ma’nolari va uning tarjimasi”. – T.: Cho’lpon, 1992. – 195 b.
2. Abu Ali ibn Sino. «Ar-risolatul me’rojiyya» (arab tilida). 129-b.
3. Alisher Navoiy. «Hayrat ul-abror». – T.: Fan, 1991. – 390 b.
4. Vohidov R. “Alisher Navoiy va Ilohiyat”. – Buxoro, 1994. – 91 b.
5. Navoiy Alisher. «Mukammal asarlar to’plami». 20 tomlik. 7-tom. «Hayratul abror». – T.: Fan, 1991. 48-b.
6. “Hidoyat” jurnali. 2012-yil. 1-son. 18-bet.